

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**YO‘LDOSHEV MURODJON AKBARALI O‘G‘LI**

**FOTOREFRAKTIV YARIMO‘TKAZGICHLARNING VA OKSIDLI  
KRISTALLARNING OPTIK VA GOLOGRAFIK XOSSALARI**

**01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
physical-mathematical sciences**

**Yo'ldoshev Murodjon Akbarali o'g'li**

Fotorefraktiv yarimo'tkazgichlarning va oksidli kristallarning optik va  
golografik xossalari ..... 3

**Йулдошев Муроджон Акбарали угли**

Оптические и голографические свойства фоторефрактивных  
полупроводников и оксидных кристаллов..... 23

**Yoldoshev Murodjon Akbarali ogli**

Optical and holographic properties of photorefractive semiconductors and  
oxide crystals ..... 43

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 47

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**YO‘LDOSHEV MURODJON AKBARALI O‘G‘LI**

**FOTOREFRAKTIV YARIMO‘TKAZGICHLARNING VA OKSIDLI  
KRISTALLARNING OPTIK VA GOLOGRAFIK XOSSALARI**

**01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**



## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda axborotni maksimal samaradorlik bilan saqlash muammosi muhim o‘rin kasb etadi. So‘ngi yillarda turli qayd qiluvchi vositalarda axborotni yozib oladigan o‘ta yuqori sig‘imga ega golografik saqlash qurilmalarini yaratish bo‘yicha kompleks nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, golografik usullar yassi hamda hajmiy ko‘rinishdagi axborotlarni qayd etish, saqlash va tiklash imkonini beradi. Keng taqiqlangan sohaga ega bo‘lgan niobat litiy kristallari fotonika, kvant elektronikasi, opto va akustoelektronika sohasida qo‘llaniladigan istiqbolli materiallardan biri hisoblanadi. Elektrooptik, pezoelektrik, nochiziqli effektlar, ikkinchi garmonika generatsiyasi va lazer nurlanishi ta’sirida nur sindirish ko‘rsatkichining o‘zgarishi kabi optik xususiyatlari gologrammalarni qayd qilish uchun niobat litiy kristallaridan foydalanishga keng imkon beradi. Qolaversa, niobat litiy kristalining optik va fotoelektrik xususiyatlariga  $\gamma$ -nurlanishning ta’siri to‘g‘risida bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsada uning radiatsion va nuqtaviy nuqsonlari, hamda rang markazlarining hosil bo‘lish mexanizmlari haqida aniq bir to‘xtamga kelinmagan. Shuning uchun, niobat litiy kristalining optik xususiyatlariga  $\gamma$ -nurlanishning ta’sirini tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Turli nanoo‘lchamli yarimo‘tkazgich tuzilmalarini sintez qilish, ularning fizik xossalarini tadqiq qilish hamda ular asosida turli yarimo‘tkazgich-segnetoelektrik tuzilmalarda maydonli tranzistorlar yoki elektr maydon bilan boshqariladigan fotorezistor qurilmalari yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bunday nanomateriallar orasida rux oksidi nanotuzilmalari o‘zining noyob elektrooptik xususiyatlari sabab istiqbolli material sifatida qaralmoqda. Bu kabi xususiyatlarga ega ZnO nanotuzilmalarini keng taqiqlangan sohali materiallarda xususan, niobat litiy tagliklarida past haroratlarda o‘stirish, ularning kristall panjarasidagi xususiy nuqtaviy nuqsonlarning tabiati va o‘stirishdan keyingi nanotuzilmalarning optik xossalarini tadqiq qilish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda materialshunoslik sohasidagi fundamental tadqiqotlarga yangi turdagi yarimo‘tkazgich materiallarni turli tarmoqlarda izlash va avvaldan ma’lum bo‘lgan materiallarning, jumladan, dielektrik, pezoelektrik va segnetoelektrik kristallarning xossalarini o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu fundamental va amaliy tadqiqotlar yo‘nalishlari O‘zbekistonda ilm-fan va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, 2022–2026-yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida<sup>1</sup> o‘z ifodasini topgan.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Ta’lim sifatini oshirish va fizika sohasida ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5032-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi

---

<sup>1</sup>2022 yil 28 yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” dagi O‘zbekiston respublikasi prezidentining farmoni.

“Muqobil energetika, elektrotexnika va mikroelektronikani rivojlantirish, yarimo‘tkazgichlar fizikasi sohasidagi tadqiqotlar samaradorligini oshirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot institutini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 639-son qarorlarida ko‘zda tutilgan vazifalarni bajarishga ma‘lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyani rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining III. «Energetika, energiya resurslarini tejash, elektron asbobsozlikni rivojlantirish, mashinasozlik va asbobsozlik; zamonaviy mikroelektronika, fotonika, transport» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hozirgi kunga kelib fotorefraktiv kristallarning optik va golografik xossalari, hamda yarimo‘tkazgich-segnetoelektrik tuzilmalarning optik, fotoelektrik, morfologik va boshqa fizik xususiyatlari quyidagi ilmiy markazlarda tadqiq qilib kelinmoqda. Masalan, Parij ilmiy tadqiqotlar markazi (Fransiya), Praga universitetining ilg‘or tadqiqotlar markazi (Chexiya), Eyndxoven fan-texnologiya universiteti (Niderlandiya), Perlis universitetining nanoelektronika markazi (Malayziya), Uxan ilmiy-tadqiqot markazining fizika va matematika instituti (Xitoy), Lehi universitetining fizika fakulteti (AQSh), Pavia universitetining fizika fakulteti (Italiya), Belvauxning fan va texnologiya instituti (Lyuksemburg). Germaniya va Amerika olimlari (C.T.Myuller, E.V.Teylor va boshqalar) fotorefraktiv kristallarga  $\gamma$ -nurlanish ta‘siri va kombinatsion sochilish mexanizmlari, hamda yarimo‘tkazgich-segnetoelektrik tuzilmalarning elektrooptik xususiyatlarini keng miqyosda tadqiq qilganlar.

Tananayev M.N. nomidagi Rossiya nodir elementlar va mineral xomashyolar kimyosi va texnologiyasi institutida M.N.Palatnikov, I.N. Yefremov, N.V. Sidorov va ularning shogirdlari materialning molekulyar tuzilishini o‘zgartirish orqali niobat litiy kristallari va ularning kondensatlarining fotorefraktiv xossalarini nazorat qilishning samarali usulini ishlab chiqishni amalga oshirdilar. Qolaversa, ushbu olimlar guruhi tomonidan fotorefraktiv kristallarning tuzilmaviy xususiyatlarini, ularning tuzilishidagi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar darajasi va optik xususiyatlarini aniqlashning metodikasi ham ishlab chiqilgan. Qirg‘izistonlik olimlar Akayev A.A., Jamankyzov N.K., Jumaliyev K.M. yorug‘lik nuri shaklidagi axborotlarni golografik usullar yordamida qayd etish va saqlash, nazariyasi va amaliyoti muammolari bilan shug‘ullanganlar.

O‘zbekistonlik olimlar Xabibullaev P.K., Mirzayev S.Z., Azamatov Z.T., Krivorotov V.F., Sabirov L.M., Axmedjanov F.R., Semenov D.I. va boshqalar fotorefraktiv kristallarning optik va golografik xossalarini, shuningdek, bu xossalarga  $\gamma$ -nurlanishning ta‘siri to‘g‘risida bir qator tadqiqotlar olib borganlar. Biroq hozirgi vaqtga qadar keng taqiqlangan sohali niobat litiy kristallarining optik va golografik xususiyatlariga temir ionlarini hamda  $\gamma$ -nurlanishining ta‘sirini miqdoriy jihatdan baholash ishlari to‘liq amalga oshirilmagan. Bundan tashqari, ZnO nanotayoqchalarini niobat litiy tagliklarida past haroratlarda o‘stirish va

o‘stirishdan keyingi nanotuzilmalardagi morfologik va spektral o‘zgarishlar chuqur tadqiq qilinmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Milliy universiteti va O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy tadqiqot dasturi doirasida “Yarimo‘tkazgichli geterotuzilmalarda, fotorefraktiv, fotoxrom va fotopolimer materiallarda axborotni saqlashning golografik jarayonlari va mexanizmlarini tadqiq qilish” mavzusida va BF-2-027 “Nanozarrachalarning hosil bo‘lish mexanizmlari va ularning noxizizli optik xususiyatlarini tadqiq qilish” (2018–2020 yy.) loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** keng taqiqlangan sohali yarimo‘tkazgichli  $\text{LiNbO}_3$ ,  $\text{LiNbO}_3\text{:Fe}$  kristallarida golografik qayd qilish jarayoni,  $\gamma$ -nurlanishning ushbu kristallarning optik xususiyatlariga ta’siri va yarimo‘tkazgich-segnetoelektrik tuzilmalarning elektrooptik xossalarini tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

keng taqiqlangan sohali niobat litiy kristallarining fotorefraktiv xususiyatlari, stoxiometriyasi, legirlanganlik darajasi va o‘stirish usularini tahlil qilish;

temir ionlari bilan legirlangan niobat litiy kristallaridagi sindirish ko‘rsatkichi o‘zgarishini qayd etish, golografik usulda axborotni yozish va o‘qishning xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish;

nurlantirilmagan va turli dozalarda  $\gamma$ -nurlari bilan nurlantirilgan  $\text{LiNbO}_3$  va  $\text{LiNbO}_3\text{:Fe}$  kristallarining optik yutilish va kombinatsion sochilish spektrlarini tadqiq qilish;

$\text{LiNbO}_3$  va  $\text{LiNbO}_3\text{:Fe}$  monokristall tagliklarida gidrotermal usulda o‘stirilgan rux oksid nanotayoqchalarini optik xususiyatlarini tadqiq qilish;

Si asosli  $\text{LiNbO}_3$  yupqa plyonkalarini olish,  $\text{LiNbO}_3\text{/ZnO/Si}$  geterotuzilmalarining volt-amper xarakteristikalarini va morfologiyalarini tadqiq qilish.

**Tadqiqotning ob’yekti** sifatida keng taqiqlangan sohali sof va turli konsentratsiyada temir ionlari bilan legirlangan niobat litiy kristallari hamda yarimo‘tkazgich-segnetoelektrik tuzilmalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida keng taqiqlangan sohali niobat litiy kristallarida axborotni saqlash va golografik qayd qilishning fizik mexanizmlari va turli dozalardagi  $\gamma$ -kvantlarining niobat litiy kristalining optik xossalariga ta’siri, yarimo‘tkazgichli ZnO tuzilmalarning morfologiyasi, fotolyuminessensiya va yutilish spektrlari hamda volt-amper xarakteristikalarini olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi: kristallarning golografik xususiyatlarini aniqlash uchun ikki nurli stend usuli, yutilish va kombinatsion sochilish spektrlarini o‘lchashda UV-3600 (Shimadzu) va Ocean Optics QEPro qurilmasi, rux nanotayoqchalarini keng taqiqlangan sohali niobat litiy taglikga o‘stirishda gidrotermal usullaridan, yarimo‘tkazgichli rux oksid tuzilmalarning morfologiyasini tadqiq qilishda EVO MA10 (Carl Zeiss) skanerlovchi elektron mikroskoplaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

niobat litiy kristallarining difraksiya samaradorligi He-Ne lazeri uchun  $\eta=31\%$ , He-Cd lazeri uchun  $\eta=34\%$  ekanligi hamda fotosezgirliги temir ionlarining konsentratsiyasiga bog‘liq holda 3÷7 marta ortganligi aniqlangan;

ilk bor  $\text{LiNbO}_3$  va  $\text{LiNbO}_3:\text{Fe}$  kristallarining fotorefraktiv sezgirliги  $\gamma$ -nurlanish dozasi (D<10<sup>8</sup> R) bog‘liqligi va taqiqlangan soha kengligi 3,39 eV dan 3,04 eV gacha o‘zgarishi aniqlangan;

ilk bor  $\gamma$ -kvantlari bilan nurlantirilgan niobat litiy kristallari spektrining 1300÷1600  $\text{sm}^{-1}$  oralig‘iga mos keluvchi maksimal nuqtasi aniqlangan;

$\text{ZnO-LiNbO}_3:\text{Fe}$  tuzilmalarining yutilish ko‘ffisiyenti  $\text{ZnO-LiNbO}_3$  tuzilmalarining yutilish ko‘ffisiyentiga nisbatan 3 marta yuqori ekanligi aniqlangan;

ilk bor yoritilmagan holatda  $\text{LiNbO}_3/\text{ZnO}/\text{Si}$  geteroo‘tishlarning to‘g‘rilash ko‘ffisiyenti 80÷90 oralig‘ida ekanligi aniqlangan;

ilk bor oq yorug‘lik nuri bilan yoritilganda  $\text{LiNbO}_3/\text{ZnO}/\text{Si}$  geterotuzilmalarida teskari tokning qiymati 3÷5 V oraliqda keskin ortganligi aniqlangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Tadqiqot ishida olingan natijalar  $\text{LiNbO}_3$  va turli konsentratsiyali  $\text{LiNbO}_3:\text{Fe}$  monokristallarining optik xossalari elektromagnit nurlanish natijasida sodir bo‘ladigan fizik jarayonlar to‘g‘risida ilmiy bilim va ko‘nikmalarni kengroq rivojlanishiga hissa qo‘shadi;

$\text{LiNbO}_3$  va turli konsentratsiyali  $\text{LiNbO}_3:\text{Fe}$  kristallarida nurning ikkilanib sinish xususiyati, oddiy va g‘ayrioddiy nurlarning o‘zaro energiya ta’sirlashuvi, spekl tasvirlari fotorefraktiv kristallarning tuzilmaviy va optik jihatdan mukammalligini baholash usulini yaratish va golografik axborot zichligini oshirish uchun foydalaniladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** keng taqiqlangan sohali  $\text{LiNbO}_3$  va turli konsentratsiyali  $\text{LiNbO}_3:\text{Fe}$  hamda yarimo‘tkazgich-segnetoelektrik tuzilmalarning morfologiya, fotoluminessensiya, yutilish spektrlari va kombinatsion sohilish xususiyatlarini tadqiq qilishda zamonaviy o‘lchov qurilmalaridan foydalanilganligi, bundan tashqari, nufuzli nashlarda chop etilgan ishlarning natijalariga mos kelishi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati axborotni qayta ishlash va saqlash sohasida yangi bilimlarni olish,  $\gamma$ -nurlanish fotorefraktiv xususiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini hamda yarimo‘tkazgich-segnetoelektrik tuzilmalarning optik xossalari haqida fizik tushunchalarni kengaytirishga yordam berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, niobat litiy materiallaridan qaytariluvchi xotira elementi sifatida foydalanish, dozimetriyada  $\gamma$ -nurlanish dozalarining ma’lum diapazonida sezuvchanligi yuqori bo‘lgan materialni yaratishda hamda yarimo‘tkazgich-segnetoelektrik tuzilmalardan maydonli tranzistorlar va fotorezistorlar olishda qo‘llanishi mumkin.

### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

LiNbO<sub>3</sub> va turli konsentratsiyali LiNbO<sub>3</sub>:Fe kristallarining fotorefraksiya mexanizmi,  $\gamma$ -nurlanishning ushbu kristallarning optik xususiyatlariga ta'siri va yarimo'tkazgich-segnetoelektrik tuzilmalarning morfologik, tarkibiy hamda elektrofizik xususiyatini o'rganish asosida:

LiNbO<sub>3</sub> va LiNbO<sub>3</sub>:Fe kristallarining lazer va gamma nurlanish ta'sirida oddiy va g'ayrioddiy nur sindirish ko'rsatkichi hamda nochiziqli optik xossalarning o'zgarishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining U.A. Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining "Ko'p fazali tizimlarning termofizikasi" laboratoriyasida bajarilgan "Dielektrik va segnetoelektrik kristallardagi elastik, fotoelastik va superior xossalarning nochiziqli hodisalari, fazaviy o'tishlari va anizotropiyasi" mavzusidagi fundamental tadqiqot doirasida akustik to'lqinlarning yuqori chastotali diapazonida LiNbO<sub>3</sub> va LiNbO<sub>3</sub>:Fe kristallarning elastik va fotoelastik xususiyatlarini tadqiq qilish va niobat litiy kristallarining akusto-optik sifat ko'effitsiyentini aniqlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2023-yil 4-iyuldagi № 2/1255-1423-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish akustik to'lqinlar ta'sirida yorug'likning anizotrop difraksiyasi uchun difraksiya burchaklarini hisoblash imkonini bergan;

dissertatsiya ishida lazer nurlarining LiNbO<sub>3</sub> kristalida ikkilanib sinishi, nur sindirish ko'rsatkichi, yutilish ko'effitsiyentlari va nochiziqli optik xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy natijalardan Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "Lazer texnologiyalari va optoelektronika" kafedrasida "Ko'p rangli ultraqisqa impulslar manbalarini yaratish usullari uchun nochiziqli foton kristallarida femtosekundli lazer impulslarining parametrik o'zaro ta'siri" mavzusidagi Uzb-Ind-96-2021-sonli loyihani bajarishda nochiziqli foton kristallarda lazer nurlanishini uchinchi tartibli nochiziqli optik chastotaga aylantirish jarayonlarida hosil bo'ladigan dispersiya va kubik nochizizliklarni aniqlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 28-sentabrdagi 4/17-4/4-2884-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish chastota konvertatsiya jarayonlarining samaradorligini va hosil bo'lgan impuls davomiyligi bilan o'zaro ta'sirini hisoblash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishi natijalari 8 ta xalqaro va 11 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha asosiy natijalar 31 ta ilmiy ishda, ulardan 10 tasi dissertatsiya ishlarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, shu jumladan 5 ta maqola xorijiy xalqaro jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 50 ta rasm, 7 ta jadvalni o'z ichiga olgan holda 110 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi ochib berilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot ob'yektlari, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, ishni aprotasiyadan o'tganligi va nashr qilinishi, shuningdek Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi to'g'risida qisqacha ma'lumot berilgan.

**“Segnetoelektrlarda axborotlarni qayd etish va saqlash xossalari tahlili”** deb nomlangan birinchi bobda niobat litiy kristalining segnetoelektrik xususiyatlari, fazaviy diagrammalari, optik, golografik va fotorefraktiv xususiyatlari hamda bu xususiyatlarga  $\gamma$ -kvantlarining va o'tuvchi elementlarining ta'siri to'g'risida batafsil to'xtalib o'tilgan. Tadqiqotlarning hozirgi holati va eng so'ngi ilmiy izlanishlari tahlil qilinib, hal etilishi zarur bo'lgan vazifalar belgilab berilgan.

Bundan tashqari, yarimo'tkazgich-segnetoelektrik tuzilmalarning optik xossalari va bu tuzilmalar asosida yaratilgan istiqbolli materiallarning johon va O'zbekiston olimlari tomonidan olingan bir qancha ilmiy va amaliy ishlarining adabiyotlar tahlili keltirilgan.

**“Niobat litiy monokristalining olish usullari, optik va golografik xossalarini tadqiq qiluvchi tajriba qurilmalarining tasnifi”** deb nomlangan ikkinchi bobda niobat litiy kristalini Choxral usulida o'stirish texnologiyasi to'liq yoritilgan. Niobat litiy kristalini o'tuvchi elementlar bilan legirlash texnologiyasi xususiyatlari tavsiflangan.

Namunalarning optik va golografik xossalarini qadqiq qilish uchun ikki nurli stend sxemasining nazariy va tajribaviy usullari bayon qilingan.


$\text{LiNbO}_3$  va turli konsentratsiyali  $\text{LiNbO}_3:\text{Fe}$  kristallariga  $\gamma$ -nurlanish ta'sirini tadqiq qilish uchun 185 nm dan 3300 nm gacha UB va IQ-spektr sohasida ishlovchi ikki nurli UV 3600 spektrometri yordamida yutilish spektrlarini o'lchash uslubi bayon qilingan. Kombinatsion sochilish mexanizmlari o'lchash usullari keltirilgan.

Yarimo'tkazgich-segnetoelektrik tuzilmalarning morfologik va tarkibiy tahlil xususiyatlarini tadqiq qilishda skanerlovchi elektron mikroskop (EVO MA10 Carl Zeiss) qurilmasida o'lchash usullariga ham to'xtalib o'tilgan.

**“Fotorefraktiv kristallarning optik va golografik xususiyatlarining eksperimental tadqiqotlari”** deb nomlangan uchinchi bobda  $\text{LiNbO}_3$  va turli konsentratsiyali  $\text{LiNbO}_3:\text{Fe}$  kristallarining optik va golografik xossalari va bu kristallarning optik xususiyatlariga  $\gamma$ -nurlanish ta'siri tadqiqot natijalari keltirilgan.

$\text{LiNbO}_3$  kristalining temir ionlarini turli xil konsentratsiyasi bilan legirlangan hamda geliy-neon ( $\lambda=630$  nm) va geliy-kadmiy ( $\lambda=440$  nm) lazeri bilan qayd etilgan gologrammalarning difraksiya samaradorligining ekspozitsiyasi tadqiqot natijalari keltirilgan (1-rasm). Namunalar (1-namuna 0,003% Fe, 2-namuna 0,005% Fe, 3-namuna 0,020% Fe) ga gologramma sifatida yassi to'lqin fronti


qayd qilinadi. Qayd qilingan gologrammani o‘chirish geliy-kadmiy lazeri ( $\lambda=440$  nm) bilan amalga oshirildi, chunki temir ionlari bilan legirlangan niobat litiy kristallari ko‘k to‘lqin uzunligi uchun yuqori yutilishga ega. Rasmlarda ko‘rishimiz mumkinki, temir ionlari konsentratsiyasining ortishi bilan kristallning fotosezgirliги sezilarli darajada ortadi. Gologrammalar  $\lambda=440$  nm to‘lqin uzunligi uchun ikkita namunada,  $\lambda=630$  nm to‘lqin uzunligi uchun esa uchta namunada qayd etilgan. Ko‘rinib turibdiki, axborot qayd etilganda 2-namunadagi fotosezgirlik 1-namunaga qaraganda 7 marta (1b-rasm), 1a-rasmda esa 1-namunaga qaraganda deyarli 3 barobar oshganligi kuzatildi. To‘lqin uzunligi  $\lambda=630$  nm bo‘lgan namuna uchun difraksiya samaradorlikning maksimal qiymati  $\eta=31\%$ ,  $\lambda=440$  nm to‘lqin uzunligi uchun esa difraksiya samaradorlikning maksimal qiymati  $\eta=34\%$  ga teng ekanligi tajriba natijasida olindi.



**1-rasm.** Difraksiya samaradorligining vaqtga bog‘liqligi: a)  $\lambda=630$  nm (1,2,3);  
b)  $\lambda=440$  nm (1,2)


Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki,  $\text{LiNbO}_3:\text{Fe}$  kristalining nur sindirish ko‘rsatkichining o‘zgarishi to‘lqin uzunligi ( $\lambda < 500$  nm) bo‘lganda sezilarli darajada oshmoqda (2- rasm). Grafikdan ko‘rinib turibdiki, axborotni yozib olish paytida  $\Delta n_e$  qiymatlari  $10^{-5}$  dan  $5 \cdot 10^{-5}$  gacha o‘zgarishi mumkin ekan.

Bizga ma‘lumki, o‘tish metallari nurlanish ta‘sirida o‘tkazuvchanlik sohasiga d-qobiqdagi elektronlarni beradi. Kristallga  $\text{Fe}^{3+}$  ionlari legirlanganda, undagi yorug‘likning yutilishi ionlanish natijasida yuzaga keladi. Temir bilan legirlangan kristallarning yorug‘likga sezgirliги  $\text{Fe}^{2+}$  ionlarining konsentratsiyasi bilan aniqlanadi. Yorug‘lik ta‘sirida uyg‘ongan  $\text{Fe}^{2+}$  ionlari fotoelektronni o‘tkazuvchanlik sohasiga beradi, bu diffuziya paytida yoritilmagan hududda  $\text{Fe}^{3+}$  ionlari tomonidan tutib qolinadi. Bu esa o‘z navbatida  $\text{Fe}^{2+}$  konsentratsiyasining ortishi bilan axborot qayd qiladigan  $\lambda_q$  to‘lqin uzunligidagi yutilishning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Demak, kristallning yorug‘likga sezgirliğini oshiradi.



**2-rasm.** LiNbO<sub>3</sub>:Fe kristalida nur sindirish ko‘rsatkichi o‘zgarishining to‘lqin uzunligiga bog‘liqligi

LiNbO<sub>3</sub> kristalining turli xil zarrachalar va yuqori energiyali fotonlar bilan nurlanishi nuqtaviy va elektronlar bilan bog‘liq nuqsonlarning paydo bo‘lishiga olib keladi, masalan,  $\gamma$ -nurlanish kristallarning rangining o‘zgarishi, fotorefraksiyaning ortishi va optik yutilishning sezilarli o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Fotorefraktiv kristallarga kirishmalar kiritish optik va golografik xususiyatlarini bir muncha o‘zgartirishi mumkinligini bilamiz lekin nafaqat lazer nuri orqali balki  $\gamma$ -nurlanish ta’siri bilan ham bu xususiyatlarni o‘zgartirishimiz mumkin ekan. 3-rasmda  $\gamma$ -nurlanish ta’sirida namunaning oddiy ( $n_o$ ) va g‘ayrioddiy ( $n_e$ ) sindirish ko‘rsatkichining o‘zgarishi ko‘rsatilgan. Ko‘rinib turibdiki, nurlanish dozasining ortishi bilan sindirish ko‘rsatkichi nohiziqli ortib bormoqda.



**3-rasm.** LiNbO<sub>3</sub> kristallari uchun  $n_e$  va  $n_o$  larning  $\gamma$ -nurlanish dozasiga bog‘liqligi


$\gamma$ -nurlanish ta'sirida fotorefraktiv sezgirlik natijalari esa 1-jadvalda keltirilgan. Natijalardan ko'rinib turibdiki,  $\gamma$ -kvantlari tadqiq qilinayotgan kristallarning fotorefraktiv sezgirlikni oshishiga olib keladi. Fotorefraktiv sezgirlik temir ionlari bilan legirlangan niobat litiy kristalida yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. E'tibor bering, sezgirlikning qabul qilingan ta'rifiga binoan, bir xil tabiatdagi fotorefraktiv markazlarning konsentratsiyasining oshishi  $S=\Delta n/\Delta W$  qiymatning oshishiga olib kelmasligi kerak, chunki bu holda  $\Delta n$  ning oshishi bilan birga, yutilgan energiya miqdori  $\Delta W$  ham ortadi. Lekin kristallarning  $\gamma$ -nurlanish natijasida yuzaga keladigan sezgirlikning ortishi, yutilishning mexanik ortishi bilan emas, balki faqat o'stirish jarayonida hosil bo'ladigan yangi fotorefraktiv markazlarning paydo bo'lishi bilan izohlanadi.

**1-jadval**

LiNbO<sub>3</sub> va LiNbO<sub>3</sub>:Fe kristallarining fotorefraktiv sezgirlikni  $\gamma$ -nurlanish dozasi bog'liqligi

Namunalar	Turli xil dozalar uchun sezgirlik, J <sup>-1</sup> sm <sup>2</sup>				
	nurlanmagan	10 <sup>4</sup> R	10 <sup>5</sup> R	10 <sup>6</sup> R	10 <sup>7</sup> R
LiNbO <sub>3</sub>	3,9	9,3	12,2	19,5	36
LiNbO <sub>3</sub> :Fe	19	-	24,9	37,5	-

Radiatsiya markazlarining xususiyatlarini va ularning fotorefraksiyaga ta'sirini tadqiq qilish uchun niobat litiy va LiNbO<sub>3</sub>:Fe kristallarining yutilish spektrlarini tahlil natijalari keltirilgan (4-rasm).



**4-rasm.** Nurlanmagan va  $\gamma$ -nurlari bilan nurlangan kristallarining yutilish spektrlari: a) LiNbO<sub>3</sub>; b) LiNbO<sub>3</sub>:Fe

Spektrlarda sodir bo'lgan o'zgarishlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki,  $\gamma$ -nurlanish ta'sirida yutilish LiNbO<sub>3</sub> kristallarida asosan 320-390 nm sohasida va temir bilan legirlangan kristallarda esa 320-410 nm sohasida sezilarli o'zgarishiga olib kelganligini ko'rishimiz mumkin. LiNbO<sub>3</sub> va LiNbO<sub>3</sub>:Fe monokristallarning nurlanmagan va  $\gamma$ -nurlari bilan nurlangan holdagi yutilish spektrining chegarasi nurlanish dozasi ortgani sari ko'zga ko'rinadigan soha tomon siljishini ko'rsatadi. Bu siljish LiNbO<sub>3</sub> uchun 370 nm dan, LiNbO<sub>3</sub>:Fe uchun esa 400 nm dan boshlanadi.

Endi  $\gamma$ -nurlanish ta'sirida yutilish chegarasini siljishi va optik yutilishning ortishini miqdoriy jihatdan tahlil qilib chiqsak. Ber-Burger-Lambert qonuniga asosan, biror muhitdan o'tgan yorug'lik intensivligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$I = I_0 e^{-\alpha d} \quad (1)$$

bunda,  $I$ -qalinligi  $d$  bo'lgan muhitdan o'tgan yorug'lik intensivligi,  $I_0$ -muhitga tushayotgan yorug'lik intensivligi,  $\alpha$ -yutilish koeffitsiyenti.

1-ifodadan yutilish koeffitsiyenti  $\alpha$  ni topadigan bo'lsak, quyidagi tenglik hosil bo'ladi:

$$\alpha = \frac{1}{d} \cdot \ln \left( \frac{I_0}{I} \right) \quad (2)$$

Spektrometr optik zichlik ( $D$ ) ni qayd etishini hisobga olsak, quyidagini formulani olamiz:

$$D = \lg \frac{I_0}{I} \quad (3)$$

bundan:

$$\frac{I_0}{I} = 10^D \quad (4)$$

kelib chiqadi va (4) ni (2) formulaga qo'yib, quyidagi formulani olamiz:

$$\alpha = \frac{D}{d} \ln 10 \quad (5)$$

Quyidagi 2- va 3- jadvallarda  $\text{LiNbO}_3$  va  $\text{LiNbO}_3:\text{Fe}$  kristallarining ultrabinafsha hamda ko'zga ko'rinadigan sohalar uchun  $\gamma$ -nurlanish ta'siridagi yutilish koeffitsiyentlarining o'zgarishi keltirilgan. Bu yerda  $\alpha_0$ -nurlantirilmagan namunalarning yutilish koeffitsiyenti.

### 2-jadval

Niobat litiy kristallarining  $\gamma$ -nurlanish dozasiga bog'liq ravishda yutilish koeffitsiyentini o'zgarishi

$\text{LiNbO}_3$	nurlanmagan	$10^4 \text{ R}$	$10^5 \text{ R}$	$10^6 \text{ R}$	$10^7 \text{ R}$
Ultrabinafsha soha					
$\alpha \text{ (mm}^{-1}\text{)}$	1,79	1,85	1,94	2,03	2,06
$((\alpha-\alpha_0)/\alpha_0) \cdot 100\%$		3	8	13	15
Ko'zga ko'rinadigan soha					
$\alpha \text{ (mm}^{-1}\text{)}$	0,32	0,44	0,53	0,69	0,80
$((\alpha-\alpha_0)/\alpha_0) \cdot 100\%$		36	62	112	147

### 3-jadval

$\text{LiNbO}_3:\text{Fe}$  kristallarining  $\gamma$ -nurlanish dozasiga bog'liq ravishda yutilish koeffitsiyentini o'zgarishi

$\text{LiNbO}_3:\text{Fe}$	nurlanmagan	$10^5 \text{ R}$	$10^6 \text{ R}$
Ultrabinafsha soha			
$\alpha \text{ (mm}^{-1}\text{)}$	5,28	6,34	6,68
$((\alpha-\alpha_0)/\alpha_0) \cdot 100\%$		20	28
Ko'zga ko'rinadigan soha			
$\alpha \text{ (mm}^{-1}\text{)}$	2,03	2,91	3,45
$((\alpha-\alpha_0)/\alpha_0) \cdot 100\%$		40	70

O'ldashlar ultrbinafsha soha uchun 350 nm, ko'zga ko'rinadigan soha uchun esa 500 nm to'lqin uzunliklarida olingan. Jadvallardan ko'rinib turibdiki, barcha namunalarda ikkala soha uchun ham yutilish ko'ffisiyenti sezilarli ortmoqda.

Muhim kattaliklardan yana biri bo'lgan nur sindirish ko'rsatkichini aniqlab olsak. Nur sindirish ko'rsatkichi tajriba (golografik usulida) yo'li bilan va xorijiy olimlar tomonidan keltirilgan bir nechta empirik formulalar yordamida aniqlangan. Buning uchun avvalo taqiqlangan soha kengligi ( $E_g$ ) ni topib olamiz.  $E_g$  xususiy yutilish chegarasiga urinma o'tkazish usuli bilan aniqlandi.  $\text{LiNbO}_3$  va  $\text{LiNbO}_3:\text{Fe}$  kristallari uchun olingan natijalar quyida keltirilgan (4- va 5-jadval). Taqiqlangan soha kengligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$E_g = \frac{hc}{\lambda}. \quad (6)$$

bu yerda,  $\lambda$ -yutilish chegarasiga mos keladigan to'lqin uzunligi, h-Plank doimiysi, c-yorug'likning vakuumdagi tezligi.

#### 4-jadval

$\text{LiNbO}_3$  kristallari uchun nurlanish dozasiga bog'liq ravishda nur sindirish ko'rsatkichlarining o'zgarishi

$\text{LiNbO}_3$	$E_g$ (eV)	n [7]	n [8]	n [9]	n, tajriba
nurlanmagan	3,39	1,9462	2,2387	2,2922	2,2971
$10^4$ R	3,34	1,9772	2,2520	2,3018	2,3018
$10^5$ R	3,31	1,9958	2,2600	2,3076	2,3085
$10^6$ R	3,28	2,0144	2,2682	2,3135	2,3123
$10^7$ R	3,25	2,033	2,2765	2,3195	2,3182

#### 5-jadval

$\text{LiNbO}_3:\text{Fe}$  kristallari uchun nurlanish dozasiga bog'liq ravishda nur sindirish ko'rsatkichlarining o'zgarishi

$\text{LiNbO}_3:\text{Fe}$	$E_g$ (eV)	n [7]	n [8]	n [9]	n, tajriba
nurlanmagan	3,17	2,0826	2,2989	2,3356	2,3285
$10^5$ R	3,11	2,1198	2,3160	2,3479	2,3447
$10^6$ R	3,04	2,1632	2,3366	2,3626	2,3561

Birinchi empirik formula hindistonlik olimlar guruhi Ravindra va boshqalar tomonidan keltirilgan. Olimlar taqiqlangan soha va yuqori chastotali nur sindirish ko'rsatkichi o'rtasidagi turli nisbatlarni taklif qilishdi va (n) ni chiziqli shaklini  $E_g$  ning funksiya ko'rinishida taqdim etishdi:

$$n = \alpha + \beta E_g. \quad (7)$$

bu yerda,  $\alpha=4,048$  va  $\beta=-0,62 \text{ eV}^{-1}$  o'zgarimas ko'ffisiyentlar.

Erve va Vandamm esa yorug'likning sinishi va tarqalishi fizikasining soddaligini hisobga olib, quyidagi empirik munosabat taklif qilishdi:


$$n = \sqrt{1 + \left(\frac{A}{E_g + B}\right)^2}. \quad (8)$$

bu yerda,  $A=13,6 \text{ eV}$  va  $B=3,4 \text{ eV}$ .

Gosh va boshqalar Penn va Van Vextenning sohaviy tuzilmasi va kvant-dielektrik jihatdan formulirovkasini ko‘rib chiqib, muammoga boshqacha yondashdilar. Ular A ni valent elektronlarining hissasi sifatida, B ni eng kichik taqiqlangan sohaga doimiy qo‘shimcha sifatida qabul qilib, yuqori chastotali nur sindirish ko‘rsatkichi uchun quyidagi ifodani oldilar:

$$n^2 - 1 = \frac{A}{(E_g + B)^2} \quad (9)$$

bu yerda,  $A=25E_g+212$ ,  $B=0,21E_g+4,25$  va  $(E_g+B)$  materialning mos keladigan taqiqlangan sohasiga ishora qiladi. Shunday qilib, hindistonlik va boshqa tadqiqotchilar  $E_g$  va  $n$  o‘rtasidagi bog‘liqlik uchun uchta empirik formulani taklif qilishdi.



**5-rasm.** Nurlanmagan va nurlangan  $\text{LiNbO}_3$  kristalining Raman spektri

Nurlangan va nurlanmagan  $\text{LiNbO}_3$  monokristallarining Raman spektrlari (5-rasm) keltirilgan. Asosiy  $245 \text{ cm}^{-1}$  va  $632 \text{ cm}^{-1}$  chastotadagi cho‘qqilar  $\text{LiNbO}_3$  kristaliga tegishli ekanligini bildiradi. Li kationlarning siljishi tebnarish chastotasining  $270\text{-}400 \text{ cm}^{-1}$  oralig‘iga to‘g‘ri keladi. Chastotaning  $550\text{-}670 \text{ cm}^{-1}$  diapazoni Nb-O valent modalariga bog‘langan, ular asosan kislorod atomlarining siljishlarini o‘z ichiga oladi; O-Nb-O egilgan modalari  $432 \text{ cm}^{-1}$  va undan quyi chastotalarda paydo bo‘ladi, shuning uchun o‘zgarish ko‘pincha Li-O cho‘zilgan modalari va O-Li-O egilgan modalari bilan kuchli bog‘liqligini ko‘rish mumkin.  $245 \text{ cm}^{-1}$  chastotada eng yuqori intensivlik asosan Nb-O bog‘ining deformatsiyasi bilan bog‘liqdir. Kombinatsion sochilish spektrlarining qiziq jihati shundaki, radiatsiya ta‘sirida namunalarning asosiy ( $250 \text{ cm}^{-1}$  va  $600 \text{ cm}^{-1}$ ) oraliqdagi cho‘qqilarida siljishlar kuzatilmadi. Lekin cho‘qqilarni intensivligi dozaga mos ravishda biroz tushdi.


Spektrlardan ko‘rinib turibdiki,  $1300 \div 1600 \text{ cm}^{-1}$  oraliqda yuqori intensivligi  $1375 \text{ cm}^{-1}$  chastotaga to‘g‘ri keluvchi yangi cho‘qqilar paydo bo‘lmoqda, bu cho‘qqilarning intensivligi nurlanish dozasi ortishi bilan ortib bormoqda (5b-rasm). Bizning fikrimizcha bu cho‘qqilarning paydo bo‘lishi radiatsion nuqsonlardir va bu nuqsonlar  $\gamma$ -nurlanish ta‘sirida yuzaga keladigan kombinatsion sochilishga sezgir markazlar tufayli yuzaga keladi.

**“Yarimo‘tkazgich-segnetoelektrik tuzilmalarning optik va elektrooptik xossalarini tadqiq qilish”** deb nomlangan to‘rtinchi bobda yarimo‘tkazgich-segnetoelektrik tuzilmalarning morfologik, fotolyuminessensiya, yutilish spektrlari hamda  $\text{LiNbO}_3/\text{Si}$  va  $\text{LiNbO}_3/\text{ZnO}/\text{Si}$  geterotuzilmalarning volt-amper xarakteristikalari tadqiqot natijalari keltirilgan.

$\text{LiNbO}_3$  va  $\text{LiNbO}_3:\text{Fe}$  tagliklarida past haroratlarda gidrotermal usulda o‘stirilgan  $\text{ZnO}$  nanotayoqchalaridan tashkil topgan yarimo‘tkazgich-segnetoelektrik tuzilmalarning ba’zi optik xossalariga to‘xtalib o‘tamiz.


Hozirgi vaqtda yarimo‘tkazgich-segnetoelektrik tuzilmalar asosida radiofotonika va funksional mikroelektronika qurilmalarini yaratish imkoniyati mavjudligi tufayli tadqiqotchilarning e’tiborini tortib kelmoqda. Bundan tashqari, bu tuzilmalar asosida maydonli tranzistorlar yoki maydon bilan boshqariladigan fotorezistor qurilmalarini yaratishga imkon beradi. Rux oksid yupqa qatlamlari esa fizik parametrlarining ushbu tuzilma asosida ultrabinafsha, ko‘k, yashil va oq svetodilar, optik va gaz sensorlar, piezoelektrik sensorlar, shaffof kontaktlar va boshqalarni yaratish uchun xizmat qiladi.

Quyida yarimo‘tkazgich-segnetoelektrik tuzilmalarning SEM tasvirlari keltirilgan (6-rasm). Rux oksid nanotayoqchalari  $\text{LiNbO}_3$  va  $\text{LiNbO}_3:\text{Fe}$  tagliklarga bir vaqt va ayni muhitda o‘stirilgani uchun tasvirlar deyarli bir xil. SEM tahlillaridan ko‘rinib turibdiki,  $\text{ZnO}$  nanotayoqchalarining uzunligi 10-20  $\mu\text{m}$  va diametrlari 1-3  $\mu\text{m}$  oraliqda joylashgan (7-rasm).




**6-rasm.**  $\text{ZnO}$  qatlamning sirtiy va hajmiy ko‘rinishi

